

Davlat Mullajonov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası
dotsenti, san'atshunoslik fanlari nomzodi
E-mail: mulladjanova59@gmail.com*

HARBIY DAMLI ORKESTR RIVOJLANISHIDAGI AYRIM TARIXIY BOSQICHLAR XUSUSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada qo'shnlarning strategik harakatlarida harbiy musiqaning qo'llanilishi, harbiy orkestrlarning paydo bo'lishi, xalqning ma'naviy, axloqiy va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishdagi muhim roli kabi jihatlari ko'rib chiqilgan. Mustaqil O'zbekistonning o'n ikki harbiy damli cholg'ular orkestrlari faoliyati alohida yoritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, san'at, kapelmeyster, dirijyor, harbiy cholg'u orkestrlari, shaxtam qadam, festival, nog'ora, dovul, karnay, surnay.

ON CERTAIN HISTORICAL STAGES IN THE DEVELOPMENT OF MILITARY BRASS ORCHESTRAS

Abstract. This article examines the use of military music in strategic military operations, the emergence of military orchestras, and their important role in developing the spiritual, moral, and patriotic feelings of the people. The activities of the twelve military orchestras of independent Uzbekistan are highlighted.

Keywords: music, art, kapellmeister, conductor, military brass orchestras, marching step, festival, drum, kettledrum, karnay, surnay.

Musiqa – bu go'zallik va ulug'vorlik timsoli deb bejiz aytilmagan. Chunki u inson hayotining vafoli hamrohi sifatida uni yaxshi amallarga undaydi, ilhomlantiradi, unutilmas tuyg'ularni baxsh etadi. Aynan musiqaning sehrli ohanglari sadosidan inson dam oladi, taskin topadi va fikrlaydi. Uning ilohiy qudrati insonning dunyoqarashini, his-tuyg'ularini va g'oyalarini aks ettiradi. Tasodifan eshitilgan musiqiy asar insonning kayfiyatini o'zgartirishi va hatto muhim qaror

qabul qilishiga ta'sir qilishi, haqiqiy mardona vatanparvarlik tuyg'usini uyg'ota oladi.

Darhaqiqat, vatanparvarlik tuyg'usini insonga musiqa san'atining barcha yo'nalishlari o'ziga xos yo'sinda singdirsa-da, musiqaning an'anaviy harbiy marslari va klassik asarlardan tortib, mashhur qo'shiqlar va saundtreklarning zamonaviy aranjirovkalarigacha bo'lgan turli janrlarni qamrab olgan harbiy orkestrlar ijrosidek qudratga ega emasdir.

Ma'lumki, harbiy musiqa qadim zamonlardan asosan amaliy vazifalarni, ya'ni xavf-xatar to'g'risida "xabar" beruvchi signallar, qo'shinlarning harakatlarini muvofiqlashtirish kabi vazifalarni bajargan. Qadimgi yunon faylasufi Platon davlatning qudrati va barqarorligi, uning hududida yangrayotgan musiqaga bog'liq ekanligini ta'kidlagan. Bu fikr davlatning mudofaa qobiliyatiga ham tegishli har davrda o'zgacha "harbiy" kuylar va ritmlar mavjud edi [1].

Sharq mamlakatlarida, shu jumladan, Movarounnahr (hozirgi Markaziy Osiyo) hududida harbiy musiqa o'ziga xos xususiyatlarga va madaniyat hamda an'analar bilan chuqur aloqalarga ega bo'lgan. O'rta asrlarda harbiy musiqa jamoalari tomonidan ijro etilgan bu musiqa harbiy mashg'ulot, marosimlar va hududlarning kundalik hayoti bilan yaqindan bog'liq edi. Ijro etuvchi jamoa tarkibidagi nog'ora, dovul, karnay, tirsakli karnay, bug', nofir, chapchig', shox, kavarka cholg'ulari kuchi va ta'sirchanligi bilan ajralib turgan cholg'ulari bo'lib, bayramlar va harbiy tadbirlarda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan va ijro usullari harbiylar safini tartibda saqlashga ko'mak bergan [2, 15-b].

Bu davrda harbiy musiqaning amaliy maqsadga yo'naltirilganligi qayd etiladi. Masalan, karnay va qo'ng'iroqlar jangda "xabar" berish uchun ishlatilgan, buyruqlarni etkazishda yordam bergan va qo'shinlarning harakatlarini muvofiqlashtirgan. Shuningdek, musiqa jangchilarning ruhini ko'targan va ularni qahramonlikka ilhomlantirgan. Qo'shinlar yurishga jo'nab ketganda yoki g'alaba bilan qaytganda, musiqa markaziy o'rinni egallagan. Muhim manbalardan biri – Al-Farobiyning musiqa nazariyasi va uning amaliy qo'llanilishi, jumladan, harbiy xabar beruvchi signallar haqida yozgan risolalarida, ushbu mavzuda

ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga, saroy madaniyatini, ijro etiladigan musiqiy asarlar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan [3].

Amir Temur va uning avlodlari davrida harbiy musiqaning taraqqiyoti o'zining eng yuqori cho'qqisiga etdi. Tadqiqotchilar va tarixchilar qayd etishlaricha, harbiy yurishlar vaqtida qo'shnlarni musiqachilar kuzatib yurgan. Ular nafaqat harbiy xabarchilar, balki qo'shinning ma'naviy ruhiyatini ko'tarish uchun harbiy musiqa ijro etuvchi jamoalar ham bo'lgan. Bu orkestrlar harakatlanuvchi marshlar va signallar orqali aloqa qilib, jang maydonida buyruqlarni etkazgan, shuningdek, turli marosim va bayramlarning ajralmas qismi bo'lgan [4].

San'atshunoslik fanlari doktori, professor, maqomshunos olim Oqilxon Akbarovich Ibrohimov Amir Temurning zarb usullaridan axborot uzatish vositasi sifatida foydalangani haqida quyidagi muhim mantiqiy xulosaga keladi. Xususan, u "Sohibqironning urush san'atiga ko'ra, urma va damli cholg'ularda hosil qilinadigan usullar vositasida harbiy janglarda muhim bir (taktik) ishlar ham amalga oshirilgan ko'rinadi. Tarixiy manbada va musiqiy risolalarni o'rganish hamda musiqiy meros namunalarini maqsadli tahlili orqali Sohibqiron urush "teatri"ning "dramaturgiyasi"ga oid maxsus zarbli usullar tizimi ishlab chiqilganligi haqida shunday xulosaga kelindi.

Nazarimizda, bu usullar bevosita jang maydonlarida yuzaga kelgan muayyan vaziyat va sharoitga qarab qo'llanilgan, ya'ni urushni boshqarayotgan Amir Sohibqiron (bosh qo'mondon)ning harbiy buyrug'i (masalan, "olg'a", "ortga", "qurshov" va h.k.) oldingi safda jang olib borayotgan sarkardalarga cholg'u usullari vositasida (o'ziga xos Morze telegrafi tarzida) maxfiy etkazib turgan. Mazkur usullarning aniq ifodalanishi nog'orachilar zimmasida bo'lgan, nafir (karnay) va burg'u damli cholg'ulari esa bu usullarning yanada kuchli sadolanishiga ko'mak bergan" – degan ilmiy xulosaga kelgan [2, 21-b]. Shuningdek, olim bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temur davri musiqa san'ati so'fiylik an'analari bilan izchil bog'liq bo'lgani xususida fikr yuritir ekan, harbiy musiqaga ham uning ma'naviy unsurlari kiritganini o'z tasdig'ini topgan. Bunday ta'sir kuy va aytim yo'llarida namoyon bo'lib, qahramonlik va adolat mavzularini aks ettirgan epik voqealarni ifoda etgan.

Shuningdek, harbiy tartibni saqlash va qo'shinning ma'naviy kayfiyatini ko'tarish uchun maxsus kuylar ijro etilgan.

Ko'plab tarixiy manbalarda Amir Temur davrida qo'shinlarning safar yurishlari vaqtida ularni musiqachilar kuzatib yurgani haqida ma'lumotlar berilgan. Xususan, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" (G'alabalar kitobi) asarida ta'kidlanishicha, musiqa Sohibqironning armiya hayotida muhim o'rin tutgani, uning ta'riflarida yurishlar paytida qo'shinni kuzatib yurgan musiqachilar haqida ham gap boradi. Ular nafaqat damli va zarbli cholg'ularda ijro etgan kuylari bilan ruhiyatni ko'targan, balki tartibni, intizomni saqlashga ham xizmat qilgan [5].

Tarixchi Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"ning avvalgi variantida ham armiyani musiqa bilan kuzatish an'analari haqida bayon qilingan. Musiqa nafaqat ko'ngilochar vazifalarni bajargan, balki jang oldidan marshlar, g'alabalarni nishonlash kabi tadbirlarda ham ishlatilgan.

Hukmdorning avtobiografik asari "Malfuzot-i Temuriy"da (Amir Temurning avtobiografiyasi, garchand uning haqiqiyliги shubha ostida) ham saroy musiqachilari va jamoalar haqida so'z boradi. Ular harbiy marosimlar va yurishlar bilan bog'liq odatlarda qatnashgan [6].

"Amir Temur davri harbiy musiqasi asosan cholg'u janrlaridan iborat bo'lgan. To'g'ri, goho xushxon hofizlar ham jang maydonlariga jalb qilingan"

[3]. Mazkur fikrni tasdiqlovchi Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma"sida [4, 308-309-b] Runga qarshi jangga 40 ming lashkar bilan birga yana shuncha karnay, nog'ora va bolabon cholg'ulari va to'rt ming hofizi xush qatnashgani zikr qilinadi deb yozadi san'atshunoslik fanlari doktori, professor, maqomshunos olim Oqilxon Ibrohimov [2, 16-b].

Bu manbalardan ko'rinib turibdiki, Amir Temur davrida musiqa nafaqat amaliy, balki ramziy ahamiyatga ham ega bo'lib, hukmdorning buyukligini, armiyaning intizomini va davlatning qudratini namoyon etgan.

O'rta asrlarda harbiy musiqa marosimlarda tantanavor muhit yaratish maqsadida qo'llanila boshladi. XV asrdan boshlab Usmoniylar imperiyasi armiyalarida mexterlar (harbiy orkestrlar)dan foydalanila boshlangan. Ular faqat

qo'shinlarni kuzatib yurish uchun emas, balki saroy marosimlari va bayram tadbirlari vaqtida ham ijro etilgan. Bu sultonning qudratini ta'kidlash va askarlarni ruhlantirish vazifasini bajargan [3].

XVI–XVII asrlarda Yevropaning Uyg'onish va reformatsiya davrlarida musiqiy an'analar harbiy marosimlar jarayoniga ham joriy qilindi. Masalan, XVIII asrda Rossiya va Rossiya armiyalarida harbiy orkestrlar tuzilgan bo'lib, ular paradlar, bayramlar va dafn marosimlarida qatnashgan. Aynan shu davrdan boshlab musiqa harbiy jasorat va milliy g'urur g'oyalari bilan bog'lana sug'orila boshladi. Shuningdek, Rossiyada Pyotr I davrida harbiy orkestrlar davlat qo'lloviga ega bo'lib, armiya marosimlarining muhim qismiga aylangan [8].

XIX asrda milliy harakatlarning ko'tarilishi jarayonida harbiy musiqa janrlarida vatanparvarlik (patriotik) tamoyillar shakllana boshladi. Yevropa mamlakatlarida harbiy marshlar, gimnlar va qo'shiqlar askarlar jasoratini ulug'lab, milliy birlik g'oyalarini mustahkamladi. Bu borada Fransiya inqilobining ramziga aylangan "Marseleza" va Avstriyadagi Iogann Shtraus asarlari kabi harbiy marshlar davlat yutuqlarini madh etganini yodga olish kifoya [7].

Rossiyaning Turkiston o'lkasini o'z tarkibiga qo'shib olishi bu hududda harbiy damli orkestrlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu orkestrlarning kapelmeysterlari A.Eyxgorn va N.Mironov XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ko'p qirrali faoliyati mintaqa musiqa madaniyati rivojiga katta hissa qo'shdi.

A.Eyxgorn ilk bor Markaziy Osiyo xalqlari musiqiy folklorini to'plovchilar va tadqiqotchilardan biri sifatida tanildi. U mazkur etnografik materiallar asosida harbiy damli orkestr ijrosiga moslashtirish yo'nalishidagi dastlabki urinishlarni amalga oshirgan. Eyxgorn Toshkentda kapelmeyster lavozimida faoliyat yuritib, konsertlar tashkil qilgan va musiqa jamoalarini boshqargan. Shu bilan birga, etnografik tadqiqotlar jarayonlarida Markaziy Osiyo xalqlarining musiqiy cholg'ularini to'plab, 1885-yilda Sankt-Peterburgda "Markaziy Osiyo xalqlari musiqiy asboblarning to'liq kolleksiyasi" nomli katalogni chop etgan. Mazkur katalog ayni paytga qadar mintaqa madaniy an'analarini o'rganish uchun muhim etnografik manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda [8].

Shuningdek, N.Mironov ham Turkistonning madaniy hayotida faol ishtirok etib, kapelmeyster sifatida ishlagan va mintaqada musiqa jamiyatlarini tashkil qilishga yordam bergan. Eyxgorn kabi, u ham G'arb musiqa an'alarini ommalashtirish bilan bir qatorda mahalliy madaniyatni o'rgangan. Xususan, 1884-yilda Toshkentda mahalliy va rus musiqachilarini, jumladan Eyxgorn va Mironovni birlashtirgan musiqa jamiyati tashkil etilgan. Ular tomonidan amalga oshirilgan ishlar mintaqa professional musiqa ta'limi va ijrochilik san'atining rivojlanishi uchun asos yaratib, musiqa ta'limi tizimini yaratish va musiqa san'atini ommalashtirishda ulkan hissa qo'shgan.

Harbiy vatanparvarlik tamoyili madaniyatning muhim elementi sifatida SSSRda ham rivojlandi va jangchi ruhini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynadi. Sovet Ittifoqida harbiy orkestrlar ikkinchi jahon urushida askarlar ruhini ko'tarish, jangchilarni frontga kuzatish marosimlarida qatnashib, vatanparvarlik mavzusidagi qo'shiqlar va marsllarni, shuningdek, ta'ziya marosimlarida ham faol qatnashdi.

O'zbekiston Respublikasining harbiy musiqasi ko'rib chiqilayotgan davrda sovet an'alarini mahalliy madaniy unsurlari bilan uyg'unlashdi. Respublikadagi harbiy orkestrlar Yevropa va an'anaviy o'zbek cholg'ularini ham tarkibda qo'lladi. Shuningdek, milliy kuy va aytim yo'llarni ommalashtirish va ularni harbiy jamoalar uchun ijro etilgan tarzda ishlab chiqish ishlari olib borildi.

Harbiy musiqa professional ijrochilarini tayyorlashda maxsus o'qitish muassasalari, harbiy-musiqa maktablari va dirijyorlari maktablari katta rol o'ynagan. Harbiy orkestrlar jamiyat hayotida ham ishtirok etib, paradlar, mitinglar va boshqa muhim tadbirlarda faollik qilgan.

Mustaqillikni qo'lga kiritish bilan xalqimizning boy tarixiga to'g'ri baho berildi, milliy qadriyatlarimizga nisbatan ehtiyotkorona munosabat boshlandi, milliy an'ana va odatlar qayta tiklandi va rivojlandi. Dunyo tajribasi, tendensiyalar, yutuqlar va natijalarini chuqur o'rganish asosida madaniyat va san'at sohasidagi muassasalar faoliyati samarali tashkil etildi. Shuningdek, ushbu muassasalarda faoliyat yuritayotgan ilmiy kadrlar salohiyatini mustahkamlashga katta e'tibor qaratildi, bu borada yangi amaliy ishlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston

Respublikasi Milliy gvardiyasining harbiy damli orkestri, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining orkestri, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi orkestri, O'zbekiston Respublikasi Chegara qo'shinlari orkestri, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasi orkestri, Chirchiq shahridagi Ma'naviyat va ma'rifat markazi orkestri, Toyifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'mondonligi orkestri va beshta hududiy orkestr tashkil etilib, ular mamlakatimiz madaniyat hayotining muhim qismiga aylandi. Ushbu harbiy orkestrlar "Vatan himoyachilari kuni", "8-mart – Xalqaro ayollar kuni", "Navro'z", "9 may – Xotira va qadrlash kuni"da Toshkentdagi "Motamsaro Ona" monumentiga gul qo'yish marosimlari, "2-iyul – O'zbekiston Respublikasi davlat Gerbi kuni", "Mustaqillik kuni"da orkestrlar konsertlari va paradlari, har yili 25–30-sentyabrda harbiy orkestrlar festivali, 18-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Bayrog'i kuni" konsertlari, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni – 8-dekabr"ni nishonlashda va Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT)ning xalqaro madaniy dasturlarida "Труба мира", "Спасская башня", "San'at karvoni" kabi festivallarda faol ishtirok etmoqda.

Harbiy orkestrlarning repertuari xilma-xildir, unda nafaqat madhiyalar, marshlar, xalq kuylari va qo'shiqlarini zamonaviy aranjirovkada ijro etish bilan cheklanmay, balki mashhur estrada va jaz kompozitsiyalari ham o'rin olgan. Ular mamlakatimizda va xorijda ko'plab festivallar va konsertlarda faol ishtirok etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Amir Temur o'g'itlari.* – Toshkent: O'zbekiston, 2007.
2. *Ibrohimov O. Amir Temur va temuriylar davri musiqa madaniyati. Darslik.* – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. –15-35-b.
3. *Назаров А. Темурийлар даврида ҳарбий музыка.* – Тошкент: Гулистон, 1997. №4.
4. *Тошкандий, Салоҳиддин. Темурнома.* – Тошкент: Чўлпон, 1990. –308-309-б.

5. Оркестр военный // Советская военная энциклопедия. Том 6.
– Москва: Воениздат, 1978. – с-113-114.
6. Успенский Г. Опыт повествования о древностях русских.
– Х.: Университетская типография, 1818. – с-372.
7. Музыкальная энциклопедия. Том 1. – Москва: Советская энциклопедия, 1973. – с-821-822.
8. Джани-заде Т. Музыкальная культура Русского Туркестана (по материалам музыкально-этнографического собрания Августа Эйхгорна, военного капельмейстера в Ташкенте (1870-1883 гг.)).
Каталог-исследование. – М., ВМОМК имени М.И.Глинки, 2013.